



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

YOSHLAR SOTSILOGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6422208>

Baxromova Mashhura

Toshqo'ziyeva Madina

Akramova Umida

Farg'ona davlat universiteti talabalari

Annotatsiya: *ushbu maqolada yoshlar sotsiologiyasining o'ziga xos xususiyatlari sotsilogik jihatdan tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *sotsiologiya, yoshlar, barkamol avlod, yoshlik, fuqarolik jamiyati.*

O'zbekiston Respublikasida mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan islohotlarning tub mohiyati aholi turmush tarzining farovonligini oshirish, fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyati va saviyasini yuqori darajaga ko'tarish, ularda aniq fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda o'z ifodasini topadi. Davlatning taraqqiy etishida va undagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning yangi bosqichga o'tishida mamlakat oldida turgan vazifalarni turli yo'nalishlarga taqsimlagan holda, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti, Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat saril degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish demakdir. Hammamizga ayonki, bu yo'nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni taqozo etadi. Demak, fuqarolik jamiyatini qaror toptirish uchun davlat o'zining ayrim vazifalarini bo'ynidan soqit qilib, asta-sekin jamiyatning boshqa institutlariga topshirmog'i lozim. Buning uchun esa davlat tomonidan muayyan shartsharoitlar, imkoniyatlar yaratilib, jamiyatning o'z-o'zini tashkil etuvchi va boshqaruvchi idoralarining faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilishini talab etuvchi mexanizmlarni vujudga keltirish zarur.

Har tomonlama etuk avlodni tarbiyalasakgina, bugun hayot oldimizga qo'yayotgan o'ta murakkab, og'ir, sinov va qiyinchiliklarni engib o'tamiz, shundagina ko'zlangan yuksak marralarni egallay olamiz. Hech qachon hech kimdan kam bo'lmagan va hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalab kelayotgan xalqimiz, ezgu maqsad-muddaomiz – erkin, ozod va obod hayot bunyod etishda ham hech kimdan kam bo'lmaydi. Shuning uchun bu muhim masalaga doimo davlatimiz, jamiyatimizning asosiy vazifasi sifatida qaralmoqda.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

Insoniyat hamisha mukammal jamiyat bunyod etish ishtiyoqida yashagan. Mukammal jamiyatni ma'naviy yuksak, axloqiy barkamol, jismoniy etuk avlod yaratadi. Bugun mamlakatimizda yuz berayotgan o'zgarishlar insonlar hayotiga, taqdiriga daxldor ekanligini har birimiz his qilishimiz va shundan tegishli xulosalar chiqarishimiz lozim. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, barcha o'zgarishlar va yangilanishlarning markaziga inson va uning manfaatlari qo'yilganligi hammamizni quvontiradi. Mustaqil Respublikamiz fuqarolari, xususan yoshlari ruhiyatida insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ularni rivojlantirish demokratik, adolatli jamiyatni barpo etishning muhim kafolati sanaladi.

Yoshlar sotsiologiyasi XX asrning 20-yillarida Olmoniyada, AQSHda va Fransiyada shakllandi. 1928 yilda K.Mangeymning «Avlod muammosi» asari bosilib chiqdi. Bu asar yoshlarning sotsiologik muammolari ilmiy asosda o'rganilgan dastlabki asarlardan edi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab yoshlar muammolarini tahlil qilishga va echishga qaratilgan asarlar ko'plab chop etila boshlandi. Olmoniyada yoshlar sotsiologiyasi bo'yicha G.Shel'skiyning «Skeptik avlod» (1957), F.Tenbrukning «Yoshlar va jamiyat» (1962), Venadagi sotsiologik institut direktori L.Rozenmayrning «Empirik sotsial tadqiqot bo'yicha qo'llanma» (1969), Amerika sotsiologi D.Kempbellning «Sotsializasiya bo'yicha spravochnik» (1969), Amerika sotsiologi S.Eyzenshtadtning «Avloddan avlodga» (1966) asarlari yoshlar sotsiologiyasining keng rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Hozirgi davr yoshlar sotsiologiyasi doirasida yoshlar hayotini ilmiy-sotsiologik o'rganishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Yoshlar muammosini o'rganishda tarixiy yondoshish lozimligi. Yoshlarning ijtimoiy qarashlari, xulqi, qiziqishi va boshqa jihat-larini tadqiq etishda muayyan tarixiy davr, shart-sharoitlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib baho berish talab qilinadi. Masalan, hozirda, rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari sharoitida yoshlarning ijtimoiy qarashlari, qiziqishlari va yuzaga kelayotgan muammolar avvalgi davr, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumidagiga nisbatan o'zgarib, yangicha mazmunga va xususiyatlarga ega bo'lmoqda.

2. Yoshlarning o'ziga xos turmush tarzini tahlil qilish, o'rganish. Bunda yoshlarning ijtimoiy holati, hayot kechirish tarzi va uning rivojlanishi nazariy va empirik jihatdan o'rganiladi.

3. Yosh avlodning har jihatdan rivojlanib borishini tahlil qilish. Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitning, muhitning o'zgarishi oqibatida avlodlar o'rtasida doimo muayyan rivojlanish ro'y beradi. Shu sababli, keksa avlod bilan



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

yoshlar o'rtasida o'zaro ziddiyat vujudga keladi. Ko'pincha, yoshlarning manfaat va qiziqishlari, faoliyati, tashqi ko'rinishi (moda) keksa avlodda norozilik, e'tiroz hissini tug'diradi.

4. Yoshlarga tabaqaviy jihatdan yondashish. Bu metodologik tamoyil yoshlarni turli tabaqalardan iborat guruhlariga ajratib o'rganishni bildiradi. Bozor munosabatlarning tarkib topa borishi bilan yoshlar o'rtasida ham tabaqalanish yanada kuchayishi tabiiydir. Hozirdanoq ularning turli ijtimoiy tabaqalarga ajralish jarayoni ro'y bermoqda. Bir tomondan, jamiyat ijtimoiy rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatuvchi yoshlar guruhlari: talabalar, yosh olimlar, ishchilar, fermerlar, ishbilarmon, tadbirkor, san'atkor yoshlar kabi guruhlar salmog'i ortib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, bekorchi-sayoq, giyohvand, jinoyatchi kabi yoshlar jamiyat hayotida salbiy, disfunktsional ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, hozirda O'zbekiston miqyosida jinoyatchilikning 85 foizga yaqini 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar tomonidan sodir qilinayotganligini e'tiborga olsak, yoshlar sotsiologiyasining jamiyat hayotida naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini anglash mumkin bo'ladi.

Sotsiologiyada yoshlik bolalik davridan so'ng ulg'ayish davrigacha bo'lgan bir necha bosqichlarga ajratib ko'rsatiladi. Masalan, yoshlikning dastlabki, quyi chegarasi 14-16, yuqori chegarasi esa 25-30 yosh-larni qamrab o'z ichiga oladi. 20 yoshgacha bo'lgan yoshlarda asosiy muammo, ularning kasb tanlashi, ma'lumot olishi va hayotga mustaqil qadam qo'yishi bilan bog'liq vazifalardir..

Sotsiologiyaning bu maxsus nazariyasi jamiyatniig barcha ijtimoiy sohalaridagi yoshlar bilan bog'liq muammolarni o'rganadi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoiti va yoshlar muammosi; xalq xo'jaligi, fan, madaniyatning yosh mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyoji; ta'lim tizimi va yoshlarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash; demografik jarayonlar hamda yoshlarni ish bilan ta'min-lash; yoshlarning ma'lumot olishi, kasb tanlashi muammosi; yoshlar-ning kasb tanlashi va sotsial mobillik; yoshlarning kasb tanlashida milliy, hududiy va mintaqaviy xususiyatlar; yoshlarning ma'lumot olish imkoniyatlarini oldindan prognoz berish; yoshlarda mehnat malakasini shakllantirish masalalari; shahar va qishloq yoshlari hayoti; yoshlarning turmush darajasi kabi masalalar shular jumlasidandir. Ushbu ma'lumotlar bo'yicha empirik va nazariy jihatdan sotsiologik tadqiqot olib borish, ularning statik va dinamik xususiyatlarini o'rganish muhim hisoblanadi.

Yoshlar sotsiologiyasining o'ziga xos, qiyin, murakkabligi uning ko'p qirraligidadir. Ayniqsa, bozor munosabatlarga o'tish jarayonida yoshlarni ish bilan ta'minlash muammosi dolzarb masalalardan biri. Bu muammoning hal etib



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

borilishi yoshlar bilan bog'liq bo'lgan ko'plab masalalarning echimini topishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu borada, viloyatlarda yoshlarni ish bilan ta'minlash borasida «Usta va shogird» tizimi asosida ko'plab ishlar qilinmoqda. Bundan asosiy maqsad yoshlarni milliy hunarmadchilikka, qadriyatlarga, an'analarga hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash hamda ularni moddiy jihatdan ta'minlashni yaxshilashdan iboratdir..

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tarkib topa borishi, ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy qarashlarida jiddiy o'zgarishlar yasamoqda. Shuning uchun yoshlarning kelajak hayoti rejalarini, ularning qiziqishlarini aniqlash maqsadida empirik-sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish va nazariy xulosalar chiqarish yoshlar sosiologiyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yoshlarning kelajak hayotini rejalashtirish ishi eng avvalo oiladan boshlanadi. Bu jihatdan yoshlar sotsiologiyasi oila sotsiologiyasi bilan uzviy bog'lik bo'ladi.

Yoshlarning kasb tanlashi, ish joylariga ega bo'lishi ishlab chiqarishning intensiv ravishda rivojlanishi va yuksak texnologik takomillashuv jarayonida ko'p jihatdan ta'lim tizimining sifatiga ham bog'liq. Bu jihatdan esa yoshlar sotsiologiyasi ta'lim, ilm-fan sotsiologiyasi bilan yaqin aloqadadir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yosh avlodda vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni xar tomonlama etuk barkamol qilib voyaga etkazish uchun oila, mahalla, ta'lim muassasalari va turli ijtimoiy institutlarning birgalikdagi faoliyatini ta'minlash oliy maqsadimiz hisoblangan ozod va obod erkin va farovon xayot barpo etish uchun asos bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Xolbekov A.J., Idivov U.YU. Sotsiologiya. Izohli lug'at. – Toshkent: Ibn-Sino nashriyoti, 1998.
2. N.Aliqoriyev. Umumiy sotsiologiya. Toshkent, 1999.